

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ МАДАНИЙ МЕРОС
АГЕНТЛИГИ
ЯХЁ ҒУЛОМОВ НОМИДАГИ САМАРҚАНД АРХЕОЛОГИЯ
ИНСТИТУТИ
БУХОРО ФИЛИАЛИ**

**БУХОРО ТАРИХИ ВА МОДДИЙ МАДАНИЯТИ:
ЗАМОНАВИЙ ТАДҚИҚОТЛАР**

мавзусидаги Республика илмий-амалий конференция

МАТЕРИАЛЛАРИ

Илмий-амалий анжуман Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги тасарруфидаги олий таълим ва илмий тадқиқот муассасаларида 2024 йилда амалга оширилаётган энг янги илмий натижаларни илмий жамоатчиликка етказиш, фан ва таълимнинг узвий боғлиқлигини кучайтириш мақсадида Республика миқёсида анъанавий илмий-амалий (онлайн) конференция белгиланган тадбирларни амалга ошириш мақсадида ўтказилди. Конференцияда иштирок этишга чорловда эълон қилинганидек, тўпламдаги мақола ва тезислар ўзбек, рус ва инглиз тилларида нашр этилди. Тўпламга киритилган материаллар мутахассисларнинг замонавий тадқиқотларини кенг илмий жамоатчилик ва ўқувчилар етказиш билан бир қаторда ёшларга Бухоро археологияси ва тарихи ҳақида билимларини мукаммал этиш, уларни ватанпарвар, маънавий жиҳатдан баркамол инсон қилиб шакллантиришга хизмат қиласи.

МАСЪУЛ МУҲАРРИР:

Мирзаахмедов Дж.К.

Тарих фанлари номзоди, доцент

ТАҚРИЗЧИЛАР:

Ниязова М.И.

Тарих фанлари номзоди, доцент

Очилов А.Т.

Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори, доцент

Конференция материаллари Я.Ғуломов номидаги Самарқанд археология институти илмий кенгашининг 2024 йил __-майдаги йиғилиш баённомаси билан нашрга тавсия этилган.

BUXORO VILOYAT DAVLAT ARXIVI MANBALARINING BUXORO TARIXINI YORITISHDAGI AHAMIYATI

Murodova Dilrabo Shomurodovna
Buxoro davlat universiteti
Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasи katta o‘qituvchisi,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Anotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro viloyat davlat arxivining tashkil topish tarixi, muassasa fondlarida saqlanayotgan manbalarining XX asr Buxoro tarixini o‘rganishdagi ahamiyati, fondlarning qisqacha tahlili, jamlash manbalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar kiritilgan.

Kalit so‘zlar: Buxoro, okrug, viloyat, amirlik, arxiv, fond, hujjatlar, manbalar.

Аннотация: В данной статье представлена история создания Бухарского областного государственного архива, значение источников, хранящихся в фондах учреждения, в изучении истории Бухары XX века, краткий анализ фондов, а также сведения о коллекции источники.

Ключевые слова: Бухара, округ, область, эмирят, архив, фонд, документы, источники.

Annotation: This article presents the history of the creation of the Bukhara Regional State Archive, the importance of the sources stored in the institution’s funds in the study of the history of Bukhara of the twentieth century, a brief analysis of the funds, as well as information about the collection of sources.

Key words: Bukhara, district, region, emirate, archive, fund, documents, sources.

Kirish. Qadimdan jahonda G‘arb va Sharq mamlakatlarini savdo aloqalari orqali bog‘lab turgan, Buyuk Ipak yo‘lidagi savdogarlar shahri (madinat at-tujor), faxrli shahar va “qubbatal islom” nufuziga ega bo‘lgan Buxoroning umumjahon tamaddunida alohida o‘rni bor. U o‘zining ming yillar davomida shakllangan boy va noyob tarixi orqali madaniy-ma’rifiy hamda ma’naviy-diniy qadriyatlarning rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shib kelgani bilan butun dunyoda shuhrat qozongan. 1993-yilda Buxoro YUNESKOning Butun jahon merosi shaharlari ro‘yxatiga kiritilgani ham uning siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy tarixini yanada chuqur tadqiq etish ahmiyatini belgilab berdi.

Dunyoning yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlarida Buxoro tarixini birlamchi manbalar asosida o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, shaharning ijtimoiy hayoti, tarixiy-me’moriy obidalari, madrasa va masjidlari, turizm salohiyatiga oid tadqiqotlar doirasi kengaymoqda. Shunga qaramasdan, Buxoro viloyatining XX asr tarixini birlamchi manba hisoblangan arxiv hujjatlari asosida tizimli o‘rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ilmiy izlanishlar. Mazkur maqolada tarix fanida tadqiqotlar olib borishning tarixiylik tamoyili, obyektivlik va tizimli tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari. O‘zbekistonda arxivlarning shakllanishi bevosita uch ming yillik davlatchiligidan tarixi bilan bog‘liq. Shu o‘rinda, o‘zining boy tarixi,

o‘zbek xalqi madaniy-ma’naviy qadriyatlarining rivojlanishiga ulkan hissasini qo‘sib, xalqaro maydonda shuhrat qozongan, G‘arb va Sharq mamlakatlarini bog‘lab turgan, Buyuk Ipak yo‘lidagi yirik va nufuzli shahar Buxoro umumjahon tamadduni rivojlanishining eng muhim bosqichlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Ma'lumki, har bir davlat tarixini yoritishda arxiv hujjatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Tarixiy tadqiqotlarning manbaviy asosini shakllantirish va milliy-madaniy boylik hisoblangan yozma va tasviriy hujjatlar bilan muntazam ravishda jamlab borish va ularni but saqlanishini ta'minlashda davlat arxivlarining o‘rni muhimdir. Shu o‘rinda respublikamizdagi yetakchi arxiv muassasalaridan biri bo‘lgan Buxoro viloyat davlat arxivi (BVDA) manbalarining O‘zbekiston tarixini yoritishdagi o‘rni beqiyos bo‘lib, ayniqsa, bu hujjatlarda Buxoroning XX asr hayotini aks etuvchi qimmatli ma’lumotlar mujassamlashgan.

Ma'lumki, IX asrda Movarounnahrda Somoniylar sulolasini tomonidan asos solingan davlatning poytaxti bo‘lgan Buxoro shahrida barpo etilgan mashhur hukmdorlar kutubxonasida nodir qo‘lyozmalar va kitoblar bilan birga arxiv hujjatlari ham saqlangan [Исакова М.С. Становление и развитие архивного дела в Узбекистане. – Ташкент: Университет, 2012. - С. 7-20.]

Shu bilan birga Buxoro amirligining iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotini aks ettiruvchi arxiv amaliyoti ham o‘z tarixiga ega. Yozma ma’lumotlarga ko‘ra, tarixchilar orasida Qo‘shbegi arxivi deb nom olgan hujjatlar to‘plami XX asrning 30-yillarida Buxoro Arkidan topilgan bo‘lib, uning O‘zbekiston SSR Markaziy davlat tarix arxiviga topshirilishi o‘sha davrdagi murakkab iqtisodiy-siyosiy vaziyatda amalga oshirilgan. BXSR Maorif ishlari noziri Muso Saidjonov tomonidan berilgan ma’lumotlarga ko‘ra, Buxoro amirligida ikki turdagiligi arxiv hujjatlari mavjud bo‘lgan. Ular quyidagilardan iborat edi: 1) Amirlik devonxonasi; 2) Buxoro amirligi qo‘shbegisi arxiv hujjatlari. Hujjatlar arab alifbosida, fors-tojik tilida yozilgan bo‘lib, xronologik jihatdan XIX asrning 60-yillaridan to 1920-yilgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Birinchi guruh hujjatlariga qo‘shbegi devonxonasiga kelib tushgan Buxoro amirining o‘z vazirlari (kulli-ko‘shbegi) bilan olib borgan yozishmalari, ularga berilgan farmon, yorliq, nishon, muboraknomalar hisobidan tarkib topgan. Shunday tarzda amir nomidan kelgan 5000 yaqin hujjat qo‘shbegi mahkamasi arxivi tarkibida saqlanib qolgan. [Астанова Г.Ю. Архив Кушбеги – важный источник по истории аграрных отношений в Бухарском ханстве XIX – начала XX века // Общественные науки в Узбекистане. Ташкент, 1985. - №7. - С. 55-58.]

Buxoro viloyat davlat arxivi 1925-yilda 4 ta uyezd va 23 ta volost asosida Zarafshon oblast arxiv byurosi sifatida tashkil topgan. Dastlabki davrda mintaqada arxiv ishini yo‘lga qo‘yish uchun asosiy zahira sifatida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi, Zarafshon viloyati, Buxoro okrugi va Buxoro viloyati ijroiya qo‘mitalarining hujjatlari xizmat qilgan. 1925-yil 18-yanvarida arxiv byurosining shtat birliklari va ish haqi smetasi Zarafshon okrug ijroiya qo‘mitasining yig‘ilishida tasdiqlanadi. Yig‘ilishda reja qo‘mitasi raisi Muso Saidjonov va a’zolar Klyachko, Pivovarov hamda Rozenfeld, Kurisin va Agdarovlar ishtirok etgan. MAB xodimi Vladimir Kogenning 1929-yil 6-noyarbdagi Eski Buxorodagi arxiv ishi bo‘yicha bergen hisobotida 1924-yil 31-dekabrdan boshlab Amir

Olimxon madrasasida arxiv muassasi faoliyati boshlangani va unda 1884-yildan 1928-yilgacha bo‘lgan davrdagi Buxoro tarixiga oid hujjatlar saqlangani qayd etilgan.

Viloyat davlat arxivining jamlash manbalari soni 2023-yil 1-yanvar holatida 80 tani tashkil etadi. Jamlash manbalaridan 6 tasi viloyatdagi davlat organlari, 13 tasi adliya, sud, prokuratura tashkilotlari, 1 ta iqtisodiyot va statistika, 3 ta o‘rmon, qishloq va suv xo‘jaligi, 3 ta qurilish va arxitektura, 2 ta transport xizmat ko‘rsatish, 4 ta aloqa, radiouzatish va televideniya tashkilotlari hisoblanadi. Shuningdek, 1 tasi savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari, 7 tasi moliyalashtirish, kreditlash va davlat sug‘urtasi, 1 tasi uy-joy kommunal xo‘jaligi, maishiy xizmat ko‘rsatish, 21 tasi kadrlar tayyorlash va ta’lim, 2 tasi fan, 4 ta madaniyat, san’at va matbuot, 12 ta sog‘liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport muassasalari sanaladi.

2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra viloyat davlat arxivida saqlanayotgan hujjatlar tahliliga ko‘ra, jami 246452 saqlov birligidan 245657 tasi boshqaruvi hujjatlari, 160334 ta saqlov birligi sovet davriga oid, 86118 ta mustaqillik davriga oid, 795 saqlov birlik shaxsiy kelib chiqish hujjatlari, 10512 tasi suratli hujjatlarni tashkil etadi. Jumladan, viloyat davlat arxivida 10 ta fondda 10279 saqlov birligida alohida qimmatli hujjatlar saqlanmoqda. Mustaqillik yillarida Buxoro viloyat davlat arxivida ish samaradorligi tubdan yaxshilanib, Milliy arxiv hujjatlari soni ortib borganligini ko‘rish mumkin. [Юсупов У. Алиев А. Ўзбекистон архивлари. - Тошкент: Тасвир, 2021. – Б. 128.]

Bugungi kunda Buxoro viloyat davlat arxivida jami 45 nafar taniqli shaxslarning shaxsiy kelib chiqish hujjatlari saqlanmoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ushbu fondlarda hududning XX asr taraqqiyotida o‘chmas iz qoldirgan davlat va jamoat arbobi Fayzulla Xo‘jayev, BXSR harbiy tribunaliga zosib, huquqshunos G.Taxalov, taniqli qadimshunos olim S.Yurenev, ikkinchi jahon urushi ishtirokchilari – M.Ashrapov, B.Saidov, D.Xaimov, Sh.Mo‘minov, S.Sharipov, O.Bobomurodov, G.Mo‘minovlar, O‘zSSRning faxriy shifokori, kardiolog T.Jumayev, oliv toifali ortoped-travmatolog, respublikada xizmat ko‘rsatgan tibbiyot xodimi R.To‘rayev, yozuvchi N.Aminov, jurnalistlar – A.Fozilov, A.Bozorov va ko‘plab fidoyi buxoroliklarning faoliyati aks etgan tarixiy ahamiyatga molik ma’lumotlar yig‘ilgan. Mazkur fondlardagi hujjatlar orasida nafaqat Buxoro, balki, O‘rta Osiyo xalqlarining boy turmush tarzi, urf-odat va an’analari, me’morchilik san’ati, etnografiyasi, hududda olib borilgan arxeologik tadqiqotlarga oid ma’lumotlar mavjud. [BVDA, 1235-fond, 1-ro‘yxat, 1-yig‘majild, 224-varaq.]

Bundan tashqari, arxiv fondlarida Buxoro davlat universiteti va Buxoro oziq ovqat va yengil sanoat texnologiyasi institutida faoliyat yuritgan professor-o‘qituvchilar, ilmiy-tadqiqotchilar va rahbar kadrlarga tegishli hujjatlar ham saqlanadi. Jumladan, universitetning birinchi rahbari, Buxoro maorif tizimi fidoysi Vahobov Karim Vahovich, biologiya fanlari doktori, professor Abdullayev Maxdi Aripovich, tarix fanlari nomzodi, dotsent Yusupov Sulaymon Hoshimovich, tarix fanlari nomzodi Taras Fyodorovich Gelax, texnika fanlari nomzodi, dotsent

Abduraxmon Muinovlarning hayot yo‘li aks etgan shaxsiy hujjatlari arxiv fondlarida saqlanmoqda.

Viloyat davlat arxivining jamlash manbalari soni 2023-yil 1-yanvar holatida 80 tani tashkil etadi. Jamlash manbalaridan 6 tasi viloyatdagi davlat organlari, 13 tasi adliya, sud, prokuratura tashkilotlari, 1 ta iqtisodiyot va statistika, 3 ta o‘rmon, qishloq va suv xo‘jaligi, 3 ta qurilish va arxitektura, 2 ta transport xizmat ko‘rsatish, 4 ta aloqa, radiouzatish va televideniya tashkilotlari hisoblanadi. Shuningdek, 1 tasi savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari, 7 tasi moliyalashtirish, kreditlash va davlat sug‘urtasi, 1 tasi uy-joy kommunal xo‘jaligi, maishiy xizmat ko‘rsatish, 21 tasi kadrlar tayyorlash va ta’lim, 2 tasi fan, 4 ta madaniyat, san’at va matbuot, 12 ta sog‘liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport muassasalari sanaladi.

2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra viloyat davlat arxivida saqlanayotgan hujjatlar tahliliga ko‘ra, jami 246452 saqlov birligidan 245657 tasi boshqaruv hujjatlari, 160334 ta saqlov birligi sovet davriga oid, 86118 ta mustaqillik davriga oid, 795 saqlov birlik shaxsiy kelib chiqish hujjatlari, 10512 tasi suratli hujjatlarni tashkil etadi. Jumladan, viloyat davlat arxivida 10 ta fondda 10279 saqlov birligida alohida qimmatli hujjatlar saqlanmoqda. Mustaqillik yillarida Buxoro viloyat davlat arxivida ish samaradorligi tubdan yaxshilanib, Milliy arxiv hujjatlari soni ortib borganligini ko‘rish mumkin.

Xulosa. Buxoroda arxiv muassasalari BXSR davrida vujudga kelib, sovet hokimiysi yillarida o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi. Muassasada hujjatlarni yig‘ish, fond va ro‘yxatlarni shakllantirish ishlari natijasida ilmiy va amaliy ahamiyati yuqori bo‘lgan katta hajmdagi saqlov birliklari jamlangan. Ularda Buxorodagi arxiv ishining umumiy tarixi, rivojlanish bosqichlari, taraqqiyoti va o‘ziga xos jihatlarini olib beruvchi tarixiy ma’lumotlar mavjud. Bugungi kunda Buxoro viloyat davlat arxivi o‘z fondlarida hududning boy o‘tmishini yorituvchi qimmatli manbalarni jamlaganligi va ularning O‘zbekiston tarixini yoritishdagi o‘rni beqiyosligini ko‘rish mumkin.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Исакова М.С. Становление и развитие архивного дела в Узбекистане. – Ташкент: Университет, 2012. - С. 7-20.
2. Астанова Г.Ю. Архив Кушбеги – важный источник по истории аграрных отношений в Бухарском ханстве XIX – начала XX века // Общественные науки в Узбекистане. Ташкент, 1985. - №7. - С. 55-58.
3. Юсупов У. Алиев А. Ўзбекистон архивлари. - Тошкент: Тасвир, 2021. – Б. 128
4. BVDA, 1235-fond, 1-ro‘yxat, 1-yig‘majild, 224-varaq.